

Yulchiyeva Dildora Xabibullayevna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi



OILADAGI IJTIMOYIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA QAYNONALARNING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda qaynona va kelin munosabatlarini yaxshilash, ular orasidagi o'zaro nizolarni bartaraf etish, diniy qarashlarda oila muqaddasligi va uning barqarorligini saqlashda, avvalombor, uning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga ta'sir etuvchi buzg'unchi qarashlardan xalos bo'lish xususida fikrlar misollar asosida bayon etilgan.

Аннотация. В статье говорится о том, что сегодня для улучшения социально-духовной среды в семье, прежде всего, необходимо улучшить взаимоотношения между свекровью и невесткой, устранить взаимные конфликты для сохранения святости семьи и ее устойчивости в религиозных воззрениях, что влияет на ее социально-духовную среду. Также на основе примеров представлены идеи как избавиться от деструктивных взглядов.

Annotation. In the article it is said that today in order to improve the socio-spiritual environment in the family, first of all, it is necessary to improve the relationship between the mother-in-law and the daughter-in-law, eliminate mutual conflicts to preserve the sanctity of the family and its stability in religious beliefs, which impacts on its socio-spiritual environment. Also, based on examples, ideas on how to get rid of destructive views are presented.

Tayanch so'zlar: oila, murakkab oila, qaynona-kelin munosabatlari, er-xotin munosabatlari, ota-ona va farzand munosabatlari, farzand tarbiyasi.

Ключевые слова: семья, сложная семья, взаимоотношения свекрови и невестки, взаимоотношения супругов, взаимоотношения родителей и детей, воспитание детей.

Keywords: family, complicated family, relationship between mother-in-law and daughter-in-law, relationship between spouses, relationship between parents and children, upbringing of children.

bugungi kunda xotin-qizlarimizning oilalari barqarorligini saqlashda, oilalardagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni sog'lomlashtirishda ularning ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirishni yo'lga qo'yish ular orasidagi o'zaro janjallar, tushunmovchiliklar kamayishiga olib keladi.

Kirish. Oilani mustahkamlash yo'nalishlaridan biri – turmush qurgan yosh kelinlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir. Oilaviy hayot masalalari bugungi kunda “Sog'lom oila – sog'lom jamiyat asosi” g'oyasi asosida tashkil qilinmoqda. Oila iqtisodi esa uning farovonligi zaminidir. O'zbekistonda mustahkam oila qurishning sharqona usuli targ'ib qilinadi. Oilaga e'tibor insonga, kelajakka e'tibor bilan tenglashtiriladi. Inson uchun eng oliy baxt bu oiladagi baxt, tinchtotuvlik va osoyishtalik sanaladi. Shunga ko'ra, o'zbek xalqining azaliy an'analari va umumbashariy qadriyatlari uyg'unligi asosida turmush qurgan yosh kelinlarni oilaviy hayotga tayyorlash davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Kelinlarning oilasi barqaror bo'lishida, avvalo, qaynona va qaynotalarning o'rni beqiyosdir. Biz bu mavzuga bejis to'xtalmadik. Zero, bugungi kunda qaynona-kelin o'rtasidagi kelishmovchiliklar ajrimlarga sabab bo'layotganini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-3808-son qarori “Oilaning tarbiyaviy-talim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash” bobining 4-bandida “Oilalarda ichki oilaviy va shaxsiy munosabatlarni, xususan, ota-ona va farzandlar, er va xotin, qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oilada mojaroli va og'ir turmush sharoitini amaliy hal qilish mexanizmlarini joriy etish”¹ masalalariga alohida to'xtab o'tilgani bejis emas.

“Xoliqimiz Alloh taolaga beadam hamd-u sano va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga salavot-u durudlar bo'lsin. Dono xalqimiz “Oila qurish – igna bilan qasr barpo qilishga teng”, deydi. Darhaqiqat, ro'zg'orning ming mashaqqati bor. Oilalarimizda tinchlik-totuvlik bo'lsa, u oilada baraka bo'ladi.

Hayotimizda qaynona va kelin munosabatlari dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, ba'zi bir oilalarda qaynona va kelin kelishmovchiliklari haqidagi gaplar quloqqa chalinib qoladi. Bunga sabab – oilalarimizda Islom dinidan va sharqona axloqdan bexabarlik desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda xotin-qizlarimizning oilalari barqarorligini saqlashda, oilalardagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni sog'lomlashtirishda ularning ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirishni yo'lga qo'yish ular orasidagi o'zaro janjallar, tushunmovchiliklar kamayishiga olib keladi. Oilalarda doimiy janjallar oila totuvligiga putur yetkazadi, munosabatlar keskinlashib boradi. Qaynona va kelin, er va xotin orasida arziyas bahona va sabablar bilan janjallar chiqib, dushmanlik, hattoki, yuz ko'rmas bo'lib

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-3808-son qarori // <https://lex.uz/acts/-3797625>

ketish holatlari yo‘q emas. Bu kamchiliklarning oldini olish uchun qaynonalarimiz o‘zga xonadondan kelgan, boshqa muhitda o‘sgan keliniga bilmaganini o‘rgatib, bag‘rikeng bo‘lishlari tavsiya etiladi. Birovga zulm qilmasdan, murosa-yu madora qilib yashash oilaga baraka, tinchlik va totuvlik keltiradi.

Shu o‘rinda kelinlarimiz ham xatolarini tushunib, qaynonalaridan kechirim so‘rab, ularni o‘z onalaridek hurmat qilsalar, bir so‘z bilan aytganda, qaynona kelinini tushunib, kelin qaynonasini tushunib yashasa, ular oilada o‘z o‘rinlarini topadilar.

Rasululloh (s.a.v.) “Kichiklarimizga rahm qilmagan, kattalarimizni hurmat qilmagan, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarmagan kishi bizdan emas”, – dedilar (Imom Termiziy rivoyati). Asmo binti Horis kelin bo‘lib ketayotganda onasi Umoma unga shunday nasihat qildi: “Ey jigarporam, sen eringga shunday xizmat qilginki, u ham senga qul bo‘lsin. Sen unga yer bo‘lginki, u senga osmon bo‘lsin. Aytganlarimga amal qilsang, ering bilan go‘zal va sermazmun hayot kechirib, baxtiyor turmush ko‘rasizlar. Ayniqsa, eringning qarindosh va yaqinlariga hurmat ko‘rsat, chunki ularni hurmat qilish erning e‘tiborini, mehrini qozonmoq demakdir. Ularni hurmat qilish erni hurmat qilish, qadrlashdir”, – deb nasihat qilganlar. Umoma qizlariga qilgan nasihatlarida erning yaqinlariga alohida hurmat ko‘rsatishni ta’kidlaydilar. Er uchun eng yaqin inson kim? Albatta, uni tug‘ib, oq sut berib, qancha tunlarni bedor o‘tkazish evaziga avaylab katta qilib, mana shunday ko‘rkam, sog‘lom, baquvvat yigit holiga keltirgan ona erning eng yaqin kishisidir. Erning onasi, ya’ni qaynonaning hurmatini joyiga qo‘yish, ko‘nglini olish, xizmatini qilish erni hurmat qilish demakdir. Bu esa bizning mamlakatimizda oilaviy qadriyatlarimizdan eng qadrlisidir².

Alloh taolo erlar va xotinlar o‘zaro murosa va totuvlik bilan yashashi uchun ular o‘rtasida inoqlik va muhabbat tuyg‘ularini ham paydo qildi. Bu haqda “Qur’oni karim”da shunday marhamat qilinadi: **“Uning alomatlaridan (biri) sizlar taskin topishingiz uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratgani va o‘rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun ibrat-alomatlar bordir” (Rum surasi, 21-oyat)**³.

Kelinlar esa qaynonalarini o‘z onasidek yaxshi ko‘rib, hurmat ko‘rsatishi, ularni g‘animat bilib, duolarini olishga harakat qilishi kerak. Bu erning ham roziligiga sabab bo‘ladi.

“Qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib choy uzatgan keliniga qarab qaynonaning qalbida mehr mavjlandi. Dasturxondagi noz-ne‘matlarning eng saralarini oila shajarasi davomchisini yuragining tagida ko‘tarib yurgan kelinining oldiga surib qo‘ya boshladi” – bu juda oddiy, lekin har kuni

Kichiklarimizga rahm qilmagan, kattalarimizni hurmat qilmagan, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarmagan kishi bizdan emas.

² Бухоро шаҳридаги “Сайфиддин Бохарзий” масжиди имом хатиби Р.Камолов https://www.naqshband.uz/makolalar/qaynona_va_kelin_munosabatlari

³ https://quranenc.com/uz/browse/uzbek_sadiq/30

Qaynona va kelin o'rtasidagi aloqalar go'zal va chiroyli bo'lgani qanday yaxshi. Biroq ikkisi o'rtasidagi munosabatlar inqiroz ko'chasiga kirib qolgan vaqtda hech bo'lmaganda insoniylik nuqtayi nazaridan mahalla-ko'y oldida, farzandlar qarshisida aql va ziyraklik bilan harakat qilish lozim.

mamlakatimizdagi millionlab oilalarda sodir bo'ladigan baxtli lahzalardir. Bunday manzara oila muhitiga ta'sir o'tkazib, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida ham mehr-oqibatni mustahkamlaydi. Lekin bu haqiqatni har doim ham qaynonalar keliniga oshkor etavermaydi va bu kelindan "meni qanday qabul qilishar ekan?" degan xayol o'tadi. Bugungi kunda ko'pchilik oilalarda qizlar tarbiyasida "qaynona unday bo'ladi, bunday bo'ladi, u hech qachon ona bo'lmaydi" kabi stereotiplarini shakllantirib borishadi. Natijada kelin tomonidan qaynonaning harakatlarini noto'g'ri talqin qilish fikri paydo bo'ladi.

Qaynonalar tomonidan ham diniy bilim yetishmasligi sababli kelin uy ishlarini qilishga majbur degan stereotiplar shakllanib qolgan. Masalan, kelin oilaning boshqa a'zolari kabi oshxona ishlarida, uy-joy va hovli ozodaligini tartibga solishda, yoshi kattalarning xizmatini qilishda yordam berishi talab etiladi. Xonadon a'zolarining kasb-kori, sharoitidan kelib chiqib, boshqa ishlarga ham hissa qo'shishi mumkin.

Qaynona va kelin o'rtasidagi aloqalar go'zal va chiroyli bo'lgani qanday yaxshi. Biroq ikkisi o'rtasidagi munosabatlar inqiroz ko'chasiga kirib qolgan vaqtda hech bo'lmaganda insoniylik nuqtayi nazaridan mahalla-ko'y oldida, farzandlar qarshisida aql va ziyraklik bilan harakat qilish lozim.

Ayrim qaynonalar kelinlariga zulm qilishlari ham hech kimga sir emas. Ba'zi o'ziga haddan ziyod bino qo'ygan qaynonalar o'zlarini bamisoli bir qirolichadek, kelinlarini esa cho'ridek hisoblaydilar. Arzimas sabablar bilan kelinlarini turtkilayveradilar. Kelin sal uxlab qolsa yoki qaynonaning oyoq kiyimini to'g'rilab qo'ymagan bo'lsa yoki homilador bo'lavermasa, boshidan tegirmon toshi yurgizadilar. Oilalarning buzilishiga yoki qaynona-kelin munosabatlarining yomonlashishiga ko'pincha arzimagan "dedi-dedi" gaplar ham sabab bo'ladi. Hech qaysi kelin yangi uyiga kelganda ularga nisbatdan g'araz niyatlar olib kelmasa yoki ularni behurmat qilishni o'ylamasa kerak. Ular go'yoki yosh niholga o'xshaydi, uni egri o'sishiga yo'l qo'ymay, mehr bilan sug'orib, ko'p yillik tajribaga ega ayol sifatida muallimlik qilsa, tushunmovchiliklar yuzaga kelmasdi. Yoki ikkala tomonning ham davlat tashkilotlarida ishlashi ularning bo'sh vaqtini kamaytirib, har xil gap so'zlarning kamayishiga olib kelgan bo'larmidi.

Biz bu dunyoning hech narsaga arzimaydigan moddiy boyliklaridan ko'ra yonimizdagi yaqinlarimizni asrashni o'rganishimiz kerak. Hamma inson ham xato qiladi, kechira olish esa hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Mehr esa har qanday muammolarning oddiy yechimi hisoblanadi.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: ***"Kichiklarimizga rahm qilmagan, kattalarimizni hurmat qilmagan, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarmagan kishi bizdan emas"*** (Imom Termiziy rivoyati).

Kechirimli bo‘lish dinimizda maqталgan sifatlardan hisoblanadi. O‘zgani kechirish, nafsga yoqmasa ham, bu katta mojarolarning oldini oladi, kelgusidagi xotirjamlikni ta‘minlaydi.

Shunday ekan, qaynonalar yosh kelinlaridan o‘tgan kamchilik va xatolarni kechira bilishlari ham oliyjanoblik sanalib, yoshlarning to‘g‘ri yo‘lga tushishiga yordam beradi. Oilada qaynonalar yoshi ulug‘, tajribali bo‘lgani uchun yoshlarga imkon berishi, bilmaganlarini o‘rgatishi, bag‘rikenglik qilishi darkor. Ayni paytda kelinlar ham xatolarini tan olib, qaynonalardan uzr so‘rashi ularning hurmati ortishiga olib keladi. Oila hayoti hech qachon bir tekis, faqat shod-xurramlik, baxt-saodatdan iborat bo‘lmaydi.

Ba‘zida qaynonalar farzandlarining baxtli bo‘lishi yo‘lida o‘zining ba‘zi xoyu havaslaridan voz kechishlariga ham to‘g‘ri keladi. Qachonki er-xotin birgalashib, oila totuvligi yo‘lida kurashsagina, qiyinchiliklarni yengish oson kechadi, oila xotirjamligiga erishadi.

Maqsad va uni asoslash. Azal-azaldan dunyo ahllari bizning o‘zbek xonadonlarimizda keksalarga, ota-onalarga hurmat, eru-xotin, qaynona-kelin munosabatlari, qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shniga yaxshilik, urf-odat ananalarimizga havas bilan qarab kelishgan. Bularning barchasini islomiy odoblarimizning mahsuli deb bilamiz. Alloh taolo barchamizni ahilinoqlikda hayot kechirishimizga muvaffaq qilsin!⁴

Qaynona-kelin o‘rtasida nega nizo chiqadi?

Yangi tushgan kelinlarning ko‘pi mashaqqatlarni osonlik bilan yengib, kelinlik vazifasini ko‘ngildagiday eplab ketadilar, qaynonalarini ro‘zg‘or tashvishlaridan xalos etadilar, ularning mehrini qozonadilar. Qaynonalar ham bunday kelinni “qizim” deb bag‘riga oladilar, bilmaganini o‘rgatadilar, qiynalganida yordam beradilar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadilar, uy-ro‘zg‘or ishlarida, bola tarbiyasida ularga yaqin ko‘makdoshga aylanadilar.

Biroq hayotda qaynona-kelin orasida turli to‘qnashuvlar ham sodir bo‘lib turadi. Gap qaynona-kelin haqida borar ekan, bu masala avvaldan insoniyatning atoqli namoyandalari diqqat-e‘tiborida bo‘lib kelganini ham aytib o‘tish lozim. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o‘tgan Sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o‘zining “Navodir-ul voqe” nomli kitobida qaynona-kelin nizolari haqida yozar ekan, shunday deydi: “Qaynona-kelin nizolari bundan oldingi oilalarda ham bo‘lgan. Bundan keyin ham bo‘ladi. Ular doim urushaveradilar. Ular nima uchun urushadilar? Chunki nima sababdan urushayotganlarini o‘zlari ham bilmaydilar. Shuning uchun urushadilar”. Demak, bu o‘rinda qaynona-kelin nizolari sabablarini aniqlab, ularni bartaraf etish alohida ahamiyatga molik. Bunday kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan ayrimlarini quyida ko‘rib chiqamiz:

Oilada qaynonalar yoshi ulug‘, tajribali bo‘lgani uchun yoshlarga imkon berishi, bilmaganlarini o‘rgatishi, bag‘rikenglik qilishi darkor. Ayni paytda kelinlar ham xatolarini tan olib, qaynonalardan uzr so‘rashi ularning hurmati ortishiga olib keladi.

⁴ Алимов Абдумажид Китоб туманидаги “Туябоши” масжиди имом хатиби / <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=3084>

*Yaxshi soʻz ham,
yomon soʻz ham bir
ogʻizdan chiqadi.
Qaynonalar
kelinlarida hosil
qilingan koʻnikma,
malakaning oʻgʻli
uchun, kelajakda
nabiralari uchun
xizmat qilishini
yodda tutsinlar.*

1. Baʼzi qizlarda oilaviy hayotga, qaynonaga, qaynona-kelin munosabatlariga nisbatan salbiy tasavvur shakllangan boʻladi. Ayniqsa, yoshlar qaynonani oldindan faqat salbiy qiyofada tasavvur qiladi. Oila qurgandan keyin tasavvuridagi emas, hayotdagi qaynona bilan yashaydi. Oqibatda oʻz tasavvuridagi qaynonaga xos kamchiliklarni hayotdagi qaynonadan axtara boshlaydi. Hayotda kamchiliksiz odam boʻlgan emas, boʻlmaydi ham. Ideal qaynona, ideal kelin ham boʻlishi mumkin emas. Kelinlar oʻzlari tushgan yangi oila aʼzolariga ilk taassurot asosida baho berishga shoshilmasliklari kerak. Aks holda, pashshadan fil yasash hech gap emas. Kelinlar ogʻir-bosiq, sabr-toqatli boʻlishlari, iloji boricha oʻzlari tushgan xonadon aʼzolarining yaxshi tomonlarini koʻra bilishlari, eri shu xonadon aʼzosi ekanini unutmasliklari kerak. Ana shunda bu oila tinch-totuv boʻladi.

2. Qaynona-kelin dunyoqarashi, uy-roʻzgʻor tutish borasida kelishmovchilik paydo boʻladi. Ikki avlod dunyoqarashi, hayotiy tamoyillari oʻrtasida tafovut boʻlishi tabiiy, ammo koʻp hollarda qaynona-kelin bir-birining aksi boʻladi. Baʼzida esa qaynona-kelin andishani yigʻishtirib qoʻyib, har biri oʻzining gapini oʻtkazishga harakat qiladi. Bunday kelishmovchiliklarning oldini olish uchun kattalar yoshlarni nazorat qilishda meʼyorni bilishi kerak. Yoshlar ham, oʻz navbatida, iloji boricha ota-onalarini tushunishlari, ularning gʻashiga tegadigan nooʻrin qiliqlardan, qaynonaga xush kelmaydigan salbiy odatlardan tiyilishlari lozim.

3. Baʼzi kelinlar kelinlik, onalik vazifasini bajarishga tayyor boʻlmaydilar. Shunday kelinlar boʻladi: ular na ovqat pishirishni, na kir yuvishni, na kattalar bilan muomala qilishni eplay olmaydi. Kelin kelinligining birinchi kundan ham hamma narsani keragicha bilishi, katta tajribaga ega qaynonasi darajasida turishi qiyin. Shuning uchun qizlarga osh-ovqat pishirishni, meva-sabzavotlardan qish fasliga sharbat, tuzlama, murabbo tayyorlashni, uy-joyini saranjom-sarishta tutishni, did bilan mehmon kutishni, tejamkorlikni, uy jihozlaridan avaylab foydalanishni oʻrgatish zarur. Chunki el orasida “Qiz bola bironing xasmi, boshqa oilaga tushishi bor” degan gap bor. Shuni eʼtiborga olib, qizlar roʻzgʻor tutishga puxta tayyorlanadi. Qaynonalar ham kelinlardan hadeb kamchilik qidiravermasdan, uni oʻz farzandiday koʻrib, bilmaganini sabr-toqat bilan oʻrgatib borishlari, kamchiliklarini yuziga solavermasdan, yaxshi tomonlarini eslab turishlari lozim. Yaxshi soʻz ham, yomon soʻz ham bir ogʻizdan chiqadi. Qaynonalar kelinlarida hosil qilingan koʻnikma, malakaning oʻgʻli uchun, kelajakda nabiralari uchun xizmat qilishini yodda tutsinlar.

4. Ayrim hollarda qaynona-kelin bola tarbiyasi masalasida kelisholmay qolishadi. Baʼzi oilalarda bolalar bobo-buvilar yoki ota-onalar tomonidan meʼyoridan ortiq erkalab yuboriladi. Natijada ota-onalar bilan bobo-buvilar oʻrtasida “Bolaga kim tarbiya berishi kerak?”

degan masalada kelishmovchilik chiqadi. Aslida, ular ham, bular ham bolalarning kelajakda yaxshi inson bo‘lib voyaga yetishini istashadi. Tanlagan yo‘llari esa turlicha bo‘ladi. Biroq ular bir to‘xtamga kelib olishmasa, bola tarbiyasining holiga voy deyaering. Buning uchun ular boladan xoli joyda murosaga, yakdil qarorga kelib olishlari lozim. Ana shunda bobo-buvilar ham, ota-onalar ham ahillik bilan bola tarbiyasi borasida munosib chora-tadbirlar ko‘rishadi.

5. Ba‘zan katta xonadonda ovsinlar qaynona iltifotini qozonish yo‘lida bir-birlaridan rashk qilishlari sabab janjal kelib chiqadi. Oilada ikki yoki undan ortiq kelin bo‘lsa, qaynona ularning hammasiga bir xilda qaray olmasligi tabiiy. Kelinlardan birortasi qaynona didiga yaqinroq, ba‘zisi uzoqroq bo‘ladi. Ayollar o‘ta ruhiy sezgirliklari bois buni tezda payqaydilar. Natijada “o‘gay” kelin bilan qaynona o‘rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Buning oldini olish, ovsinlar orasiga sovuqchilik tushirmasligi uchun qaynona kelinlariga imkon qadar bir xil munosabatda bo‘lishi kerak. Bu o‘rinda kelinlardan ham aql-idrok, sabr-toqat talab etiladi.

6. Ba‘zi hollarda qaynona kelinining yosh xususiyatlarini, qiziqishini, orzu-havaslarini hisobga olmaydi. Qaynonalar orasida bir umr uy bekasi bo‘lganlari ham bor. Ular boshqa yumushlar bilan uy-ro‘zg‘or ishlarini baravar olib borishni boshdan o‘tkazishmagan. Ana shunday qaynonalar yoshligida o‘zlarini “risoladagidek kelin bo‘lganman” deb biladilar, qaynota-qaynonalarini qanday hurmat qilganini tez-tez eslab turadilar, kelinlarining ham o‘zlariday bo‘lishini istaydilar. Ba‘zan uni o‘g‘il orqali ochiqdan ochiq talab qiladilar. Bunga kelinlarining imkoni bormi yoki yo‘qmi, o‘ylab ham o‘tirmaydilar. Bunday qaynonalar “ehtiyojini” qondirish imkoniga ega bo‘lmagan kelinlar ularning g‘azabiga uchraydi. Qaynona kelini haqida bo‘lar-bo‘lmas gaplarni o‘g‘lining qulog‘iga quyadi, har xil do‘q-po‘pisalar qiladi. Ba‘zi hollarda maqsadiga erishadi ham. Bunday qaynonalar o‘g‘illari, nabiralari baxtidan ko‘ra o‘z huzur-halovatini ko‘proq o‘ylaydi. Buning oldini olish uchun o‘g‘ildan aql bilan ish tutish talab qilinadi.

7. Ayrim kelinlarning yangi oilaga moslashishi qiyin kechadi. Oqibatda qaynona-kelin orasida ziddiyat (bir-birini tushunmaslik, nizo) kelib chiqadi. Har bir oilaning o‘ziga xos muhiti, qonun-qoidalari, an‘analari, atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabat mezonlari, hatto faqat shu xonadon a‘zolari tushunadigan iboralar bo‘ladi. Yangi tushgan kelin o‘zi bilan tug‘ilib o‘sgan uyining muhitini, odatlarini ham olib keladi. Shuning uchun ayrim hollarda kelin bilan qaynonaning oilaviy muhiti mos kelmay qoladi. Ota-onalar iqtisodiy, moddiy, ijtimoiy saviyasi orasidagi tafovut ham ko‘p kelin-kuyovlar orasidagi munosabatlar keskinlashuviga ta’sir qiladi. Chunonchi, kelin yangi tushgan xonadonda qizlik xonadonidagi iqtisodiy mo‘l-ko‘lchilikni ko‘rmasdan, o‘z turmushidan sovushi mumkin. Shuning uchun, iloji

Qaynonalar orasida bir umr uy bekasi bo‘lganlari ham bor. Ular boshqa yumushlar bilan uy-ro‘zg‘or ishlarini baravar olib borishni boshdan o‘tkazishmagan. Ana shunday qaynonalar yoshligida o‘zlarini “risoladagidek kelin bo‘lganman” deb biladilar, qaynota-qaynonalarini qanday hurmat qilganini tez-tez eslab turadilar, kelinlarining ham o‘zlariday bo‘lishini istaydilar.

Ammo ko'pchilik hollarda ba'zi odamlar faqat o'z tuyg'ularini gapirishga e'tibor qilib, o'zga odamni eshitishga sabr-qanoat qilishmaydi. Boshqa tomon ham o'z fikrlarini bildira boshlasa, uning so'zlari keskin bo'linadi, "A, nima deding..." deb eshitilmaydi, o'z hamsuhbatiga e'tiborsizlik ko'rsatiladi.

bo'lsa, er-xotin hatto iqtisodiy tarafdin ham bir-biriga mos bo'lishi tavsiya etiladi⁵.

Ushbu sanab o'tilgan muammolarni hal qilishga bir yoqadan bosh chiqarib kirishilsa, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga erishiladi va bu muhitda tarbiya topgan yosh avlod ham sog'lom fikr yurita oladigan barkamol shaxs bo'lib yetishadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Yoshlarni jamiyat hayotiga integratsiya qilish: kasbiy, oilaviy, ma'naviy integratsiya. Qaynona-kelin munosabatlarining o'ziga xos milliy jihatlari. Qaynona-kelin munosabatlaridagi muammolar silsilasi: liderlik talashish, mehr obyektini talashish, bola tarbiyasi, uy-ro'zg'or muammolari, moliyaviy muammolar va pulni taqsimlash muammolari. Er va xotin munosabatlari: ruhiy psixologik yaqinlikning yo'qligi, xarakterlar va hayotiy pozitsiyaning to'g'ri kelmasligi, pul muammosi, xo'jalik muammolari, bola tarbiyasi.

Masalan, o'zbek oilalari uchun erning o'z xotiniga qanday kiyinish, qayerga borish, kim bilan gaplashish, sochini qanday turmaklash, telefonda qanday, kim bilan, qaysi kunda va qancha vaqt gaplashish, kimga nima deyishini belgilab berishi odatiy hol. Ammo, aslida, bu holat ayol erkini va individualligini cheklash deb baholanadi. Yoki qaynonaning qanday uy tutish lozimligi bo'yicha o'z kelinini tergap turishi "tarbiyalash" xususiyatiga kiritiladi.

Hamsuhbati so'zlarini bo'lish. Suhbat faqat bir tomonning emas, balki ishtirok etayotgan har ikki tomonning muloqoti hisoblanadi. Ammo ko'pchilik hollarda ba'zi odamlar faqat o'z tuyg'ularini gapirishga e'tibor qilib, o'zga odamni eshitishga sabr-qanoat qilishmaydi. Boshqa tomon ham o'z fikrlarini bildira boshlasa, uning so'zlari keskin bo'linadi, "A, nima deding..." deb eshitilmaydi, o'z hamsuhbatiga e'tiborsizlik ko'rsatiladi. Masalan, faqat qaynona gapiradi-yu, kelini o'z fikrini bildira olmaydi. Kelinning o'z fikri borligi inobatga ham olinmaydi. Yoki er gapiradi-yu, xotin o'z fikrini bildirishga urinsa, "Nima, sen menga aql o'rgatmoqchimisani?!" qabilida agressiya bilan munosabat ko'rsatiladi. Bu bilan o'z so'zlarining boshqalar fikrlaridan muhimroq ekanligini ko'rsatish, faqat o'zi gapirishga harakat qilish, boshqalarga so'z bermaslik orqali o'z ustunligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. O'z ustunligini doimo ko'rsatishga intilish ko'pincha boshqalar huquqlarining kamsitilishi evaziga bo'lishi inobatga olinmaydi.

Keling, shartli ravishda erkaklarni qaynona-kelin o'rtasida muammo tug'ilganda qanday yo'l tutishiga qarab 4 toifaga ajratamiz:

1. Onasi tomon bo'ladiganlar.
2. Rafiq tomonga og'ib ketadiganlar.
3. Umuman aralashmaydiganlar.
4. Aralashadigan erkaklar.

⁵ Зиёуддин Раҳим // <https://www.muslima.uz/index.php/uz/munosabat/qarindoshlar/2043-qaynana-kelin-nizo>

Sabab: ona va o‘g‘il o‘rtasidagi psixologik kindik uzilmagan. Ona o‘g‘lini shaxs sifatida tan olmaydi, doim farzandi xato qilib qo‘yishidan qo‘rqadi, nazoratda ushlab turishni istaydi. O‘g‘lining oilasini kuchli nazorat ostiga oladi, barcha qarorlarni o‘zi qabul qiladi. Kimga uylanadi, qachon to‘y bo‘ladi, kelin qanday kiyinadi, ertalab nechida uyg‘onib, kechqurun nechida uxlaydi, uyiga qancha muddatda boradi, ishlaydimi, yo‘qmi – bari-barini qaynona hal qiladi. Bu ona uchun me‘yor sanaladi, uylangan yigit ham “Nega onam hamma narsaga aralashayapti?” deya hayratlanmaydi. Faqat kelin hayron bo‘ladi. Shu tufayli muammo kelib chiqadi.

Oqibat: onasining etagidan ayrilmagan erkakning mustaqil shaxs sifatida shakllanishi dargumon. Kuyinchak ona bir umr o‘g‘lining katta-kichik muammolarini hal qilib yashaydi, er xotini nadoimatlarini eshitishga majbur bo‘ladi, ayol esa chidaydimi, yo‘qmi — o‘zi tanlaydi. Ba‘zi ayollar eridan najot kutish befovdaligini anglagach, yo hiyla bilan yo janjal bilan qaynona zulmidan ozod bo‘lishga urinishadi. Bora-bora ular nafaqat qaynonasi bilan, erlari bilan ham hisoblashmay qo‘yishadi.

Chora: qaynonalar, o‘g‘lingiz uylandimi, uning kap-katta inson ekanligini tan oling. Agar “hali ulg‘aymagan” deb hisoblasangiz, bir bosh og‘rig‘ingizni ikki qilishga shoshmay turing. Farzandingiz, sizningcha, juda bo‘sh tabiatli bo‘lsa, sekin-sekin mas‘uliyatni bo‘yniga iling. Ro‘zg‘orni, ayoli bilan hamfikir qaror chiqarishni, oilasidagi muammolarni bartaraf etishini o‘g‘lingizning o‘ziga qo‘yib bering.

Ayolning qiladigan birinchi ishi qaynonasining hurmatini joyiga qo‘yish. O‘chakishmaslik, qaynonaga qasdma-qasd ish qilmaslik. Erining mustaqil shaxsga aylanguncha uni hadeb ayblamaslik, onasi tomonda ekanini yuziga solmaslik, ayollik vazifalarini ado etib, mehr va hurmatini namoyon qilib, sabr qilish.

Oiladagi psixologik muhit :

1. Qaynona-kelin munosabatlari.
2. Er-xotin munosabatlari.
3. Ota-ona va farzand munosabatlari.

Yosh kelinning yangi oiladagi psixologik muhitni sog‘lom tutish bo‘yicha vazifalari. Qaynona, qaynota, er va oila a‘zolarini psixologik diagnostika qilish. Ularning psixologik tiplarini aniqlash. Ularga munosabat va muloqot xarakterini belgilash. Kulib va ochiq yuz bilan yurish. O‘zining odamlariga o‘zgalarni o‘rgatish. Yangi odatlarga o‘zini o‘rgatish. Toshdek qotib, palak yozib, ildiz otib, o‘z oilasini yaratish qonuniyatlari. Ayollar hayotidagi eng yaqin insonlar kim? Ayollar ko‘p yillik umrini kim bilan o‘tkazadi? Ayollarga oson tutmang! Ildizidan uzilgan daraxt besh yilda ko‘karadi. Ayollarni asrash, ularni avaylash va ularga mehr ko‘rsatish.

Bugun har bir mahalla idorasida yarashtiruv hay‘ati tuzilgan. Ming afsuslar bo‘lsin, bu hay‘atlarning mojaroli tashvishlari ko‘payib

Ba‘zi ayollar eridan najot kutish befovdaligini anglagach, yo hiyla bilan yo janjal bilan qaynona zulmidan ozod bo‘lishga urinishadi. Bora-bora ular nafaqat qaynonasi bilan, erlari bilan ham hisoblashmay qo‘yishadi.

bormoqda. Er-xotin yoki qaynona kelin o‘rtasida ko‘tarilgan janjalning oiladan tashqariga chiqishi doimo ushbu oilaning foydasiga emas, zarariga xizmat qiladi. Va yana aytamizki, arzimas narsalar o‘rtasida o‘zaro tortishuvlar oqibatida hatto Alloh taoloning buyuk Arshini ham larzaga keltiruvchi “Taloq” so‘ziga yoshlarimizning tillari osongina aytilishi jamiyat mas‘ullarini jiddiy xavotirga solmog‘i kerak.

Faraz qilaylik, oilalardan birida o‘zaro kelishmovchiliklar sodir bo‘la boshladi. Nima qilish kerak? O‘g‘limiz darrov “Taloq” deb aytsinmi? – Yo‘q, Qur‘oni Karimning o‘sha oyatida **“Xotinlarning itoatsizligidan qo‘rsangiz, Avvalo, ularga nasihat qiling”** deyilgan.

Murakkab oila – bir necha avlod vakillari birga yashaydigan oila. O‘zbek oilalarining ko‘pchiligi murakkab oila tipiga kiritiladi, chunki qaynona, qaynota, er va xotin, nabiralar birgalikda bir makonda bir va yagona xo‘jalik yuritish asosida yashaydilar.

O‘zbek oilalaridagi qaynona-kelin, kelin-qaynsingil o‘zaro munosabatlarini olsak, bu munosabatlarda ijobiy refleksiyaning bo‘lishi mumkinligi haqida gapirish qiyin. Chunki xalq og‘zaki ijodiyoti na‘munalarida ham, odamlarning kundalik turmush tarzi stereotiplarida ham, ayollar bo‘lajak kelin yoki qaynona obrazining ijobiy tasvirlangan holatlari kam (Farmon bibi, Jannat xola, Sotti, Ofat kelin va sh.k.). Bunday “tasavvurlar”, “idroklar” esa ularning o‘zaro munosabatlarida o‘z aksini namoyon qiladi.

Xalqimizda “Yaxshi qiz mahalladan chiqmaydi” degan naql bor. Buning boisi shuki, qiz shu mahallada o‘sar ekan, esini taniganidan buyon bo‘lajak qaynonasi, qaynsinglisini biladi, taniydi, ular haqidagi tasavvurlari adekvat (obyektiv), ya‘ni real hayotda ular bilan muloqotda bo‘lgan. O‘z navbatida, uning refleksiya-sida noadekvat “obrazlar” bo‘lmaydi, u oila qurganidan keyingi yangi sharoitga, “muhit”ga moslashishi oson kechadi. Bu yerda nomutanosibliklar deyarli kuzatilmaydi.

Oilaviy hayotda, er-xotin, qaynona-kelin, ko‘p vaqt birga (bir xonadon, hovlida) yashash jarayonida, hamkorlik va qarama-qarshilik sharoitlarida bunday baholovchi mezonlar yanada dolzarblashadi. Mabodo o‘zaro muloqot va munosabatlarda nizoli vaziyat yuzaga kelib qolgudek bo‘lsa, ma‘lumki, subyektda nizo sharoitida raqibning ojiz joylarini aniqlashga yo‘nalganlik ustunlik qiladi. Oilaviy munosabatlar esa bundan mustasno emas.

O‘z joniga qasd qilishga nima sabab bo‘lmoqda?

Jahonda suitsid, ya‘ni o‘zini o‘zi o‘ldirish holati yuzaga kelishining bir qancha sabablari mavjud, ulardan eng asosiylari, javobgarlikdan, jazodan qutulish; oilaviy nizolar (ota-bola, qaynona-kelin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar); iqtisodiy inqirozlar (bankrotlik, qarzga botib ketish, ishsizlik); ishdagi (o‘qishdagi) muammolar; baxtsiz (javobsiz) muhabbat, erning yoki xotinning xiyonati; hayotidan qoniqmaslik, zerikish, o‘z o‘rnini topolmaganlik, yolg‘izlik; yaqin insonlaridan birining yoxud

*O‘z navbatida,
uning
refleksiya-sida
noadekvat
“obrazlar”
bo‘lmaydi, u oila
qurganidan keyingi
yangi sharoitga,
“muhit”ga
moslashishi oson
kechadi.*

mashhur kumirining o'limi; ruhiy holatning buzilishi, ruhiy xo'rlanish (nomusga tegish, kaltaklash kabi jismoniy zo'rliklar oqibatida); sog'liq bilan bog'liq muammolar, giyohvandlik, alkogolizm; diniy fanatizm kabi oqibatlar natijasida o'zini nochor, kasalmand, hech kimga keraksizdek his etish yoki o'z og'irligini yaqinlariga solishni xohlamaslik yoxud o'z sha'ni, qadr-qimmatini kamsitilishidan, sharmanda bo'lishdan, qoralanishdan qo'rqib o'zini o'zi o'ldirish holatlari vujudga kelishini kuzatish mumkin.

Yakuniy qism. Demak, xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rnini topishida, birinchi navbatda, ota-onalarning munosabati katta rol o'ynasa, ikkinchidan, oliy ta'limda ularni qamrab olish imkoniyati muhim o'rin tutadi. Masalan, talaba qiz turmushga chiqsa, o'qishni qiynalib davom ettirishga majbur bo'ladi. Qo'llab-quvvatlaydigan qaynota bilan qaynonaning qo'lga tushsa, yaxshi, ammo "o'qib nima bo'larding", deydi oilaga kelin bo'lsa, buyog'ini tasavvur qilavering. Yillar davomida to'planib qolgan shu kabi muammolar, oliy o'quv yurtlariga yoshlarni qamrab olish ko'rsatkichining to'qqiz foiz ekanligi oliy ma'lumotli, keng tafakkur va dunyoqarashi bor ayollarni tarbiyalashda katta to'siq bo'ldi.

Quvonarlisi, bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan ota-onalar, qaynota-qaynonalar, kuyovlar ko'payib boryapti. O'z navbatida, xotin-qizlarning ta'lim olishi, kasb-hunarli bo'lishi uchun qog'ozda emas, real hayotda katta qulayliklar, yengilliklar yaratilmoqda. Bugun gender tenglik degan demokratik tamoyil haqida ochiq-oydin gapirilayotgani, bu borada izchil chora-tadbirlar olib borilayotgani fikrimizga misol bo'la oladi.

Mana shunday g'amxo'rlik mevasi ham shirin bo'ladi. Qizlarimiz ertaga ishlagan yoki ishlamagan taqdirda ham, oliy ma'lumotli bo'lsa, oqilalik libosini kiyadi, qo'pol gapirmaydi, bir qo'lida qaynonasi, bir qo'lida turmush o'rtog'ini ko'tarib yuradi, chiroyli oilaning dilbar va dono bekasiga, o'zaro munosabatlarda mohir diplomatga aylanadi. Mustahkam oila qurishda aynan shu jihatlar nihoyatda muhim ekanligini yigitlar ham yaxshi tushunadi, ular ham, o'z navbatida, o'ziga yaqin bo'lgan turmush o'rtog'i va onasini hurmat qiladi, e'zozlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda xotin-qizlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini hamda bilim darajalarini oshirga erishilsa, ularning bo'sh vaqtlari kamayib, o'zaro janjallarning oldini olamiz hamda bir-birlarini to'g'ri tushunishlariga erishgan bo'lar edik.

Mamlakatimizda xotin-qizlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini hamda bilim darajalarini oshirga erishilsa, ularning bo'sh vaqtlari kamayib, o'zaro janjallarning oldini olamiz hamda bir-birlarini to'g'ri tushunishlariga erishgan bo'lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808-son qarori // <https://lex.uz/acts/-3797625>
2. Бухоро шаҳар “Сайфиддин Бохарзий” масжиди имом хатиби Р.Камолов // https://www.naqshband.uz/makolalar/qaynona_va_kelin_munosabatlari
3. Алимов Абдумажид – Қитоб туманидаги “Туябоши” масжиди имом хатиби // <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=3084>
4. Зуёуддин Раҳим // <https://www.muslima/.uz/index.php/uz/munosabat/qarindoshlar/2043-qaynana-kelin-nizo>
5. https://quranenc.com/uz/browse/uzbek_sadiq/30
6. Абдурауф Фитрат “Оила ёки оила бошқаруш тартиблари”. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019.